

Date: 23rd November-2025

**TERMIZ SHAHRIDA BOG‘-PARKLAR VA HIYOBONLARNI
RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA LOYIHA TAKLIFLAR**

Ro‘ziboboyev Azizbek Azamat o‘g‘li

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti assistenti

E-mail: azizbekroziboboyev@gmail.com, +998991736351

Jalg'ashova Gulmira O'ktam qizi

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Termiz shahrining takliflar innovatsion yondashuv, zamonaviy texnologiyalar va mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Jumladan, “aqlli sug‘orish tizimi”, tematik bog‘lar, mini-hiyobonlar, yashil yo‘laklar va raqamli monitoring kabi loyihalar ekologik barqarorlikka erishishda muhim omil sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: Ekologiya, landshaft dizayni, innovatsion texnologiyalar, yashil hududlar, vertikal bog‘lar, atrof-muhit muhofazasi, urbanizatsiya, shaharsozlik.

**PROJECT PROPOSALS FOR THE DEVELOPMENT OF PARKS AND AVENUES
IN TERMEZ**

Ru‘ziboboyev Azizbek Azamat oğlu assistant,

Termez State University of Engineering and Agrotechnology

E-mail: azizbekroziboboyev@gmail.com, +998991736351

Jalg'ashova Gulmira Oktam qizi

Student of Termez State University of Engineering and Agrotechnologies

Abstract: In this article, the proposals of the city of Termez are developed taking into account an innovative approach, modern technologies and local conditions. In particular, projects such as "smart irrigation systems", thematic gardens, mini-alleys, green corridors and digital monitoring are considered as important factors in achieving environmental sustainability.

Keywords: Ecology, landscape design, innovative technologies, green areas, vertical gardens, environmental protection, urbanization, urban planning.

**ПРОЕКТНЫЕ ПРЕДЛОЖЕНИЯ ПО РАЗВИТИЮ ПАРКОВ И
ПРОСПЕКТОВ В ТЕРМЕЗЕ**

Рузибобоев Азизбек Азамат оглы

Ассистент, Термезский государственный инженерно-агротехнологический университет



Date: 23rd November-2025

E-mail: azizbekroziboboyev@gmail.com, +998991736351

Джалашова Гульмира Октам кызы

Термизский университет инженерии и агротехнологий в Талабаси

Annotatsiya: В данной статье разработаны предложения города Термез с учётом инновационного подхода, современных технологий и местных условий. В частности, такие проекты, как «умные системы орошения», тематические сады, мини-аллеи, зелёные коридоры и цифровой мониторинг, рассматриваются как важные факторы достижения экологической устойчивости.

Klyuchevyye: Ekologiya, landshaftnyy dizayn, innovatsionnyye tekhnologii, zelenyye zony, vertikal'nyye sady, okhrana okruzhayushchey sredy, urbanizatsiya, gorodskoye planirovaniye.

Kirish. O'zbekistonning janubida joylashgan Termiz shahri o'zining noyob geografik va tabiiy sharoitlari, ayniqsa, Amudaryo bo'yidagi ekotizimlari bilan ajralib turadi. Amudaryo — nafaqat strategik suv manbai, balki biologik xilma-xillik, mahalliy iqlimning yumshoq bo'lishi va yashil landshaft shakllanishida asosiy omil hisoblanadi. Afsuski, so'nggi yillarda daryo bo'yidagi hududlarning ko'p qismi noto'g'ri foydalanish, qurilish bosimi va ekologik befarqlik tufayli o'zining tabiiy ko'rinishini yo'qotmoqda.

Shu munosabat bilan, **“Ekoturizm bog'i – Amudaryo bo'yida”** loyihasi Termiz shahri uchun ekologik barqarorlikni ta'minlash, sayyohlik salohiyatini oshirish va aholiga sifatli yashil muhit yaratish yo'lida muhim qadam bo'lib xizmat qiladi. Ushbu loyiha orqali mahalliy va xorijiy sayyohlar uchun tabiiy manzaralar, qushlar va o'simliklar dunyosi bilan tanishish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, ekota'lim, sog'lom dam olish va madaniy-ma'rifiy faoliyatlar uchun keng imkoniyatlar ochiladi.

Loyiha Termiz shahrining Amudaryo bo'yida joylashgan tabiiy hududlaridan oqilona foydalanib, ularni ekoturistik zona sifatida qayta shakllantirish orqali nafaqat ekologik muhofazani kuchaytiradi, balki shahar iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Urbanizatsiya va sanoatlashuv sharoitida ekologik muvozanatni saqlash — shaharsozlikning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Termiz shahri janubiy mintaqada joylashgan bo'lib, qurg'oqchil va issiq iqlim sharoitida yashil maydonlarning ahamiyati nihoyatda yuqori. Aholining o'sib borishi, qurilishlar va infratuzilma kengayishi natijasida ekologik muhitga bosim ortmoqda. Aynan shu sababli bog'-parklar va hiyobonlar tizimini strategik jihatdan rivojlantirish zarurati yuzaga chiqmoqda. Termiz shahrida yashil hududlar ulushini oshirish orqali aholi salomatligi, atrof-muhit sifati va urbanistik muvozanatni tiklash imkoniyatlarini yoritadi.

Loyiha takliflari

1. “Yashil Termiz” dasturi-bu Termiz shahrida yashil hududlar ulushini oshirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash, aholining yashash sifati va sog'lom hayot tarzini yaxshilashga qaratilgan kompleks shahar dasturidir.



Date: 23rd November-2025

Termiz shahrida bog‘-parklar, hiyobonlar va yashil yo‘laklar sonini ko‘paytirish, ekologik xavfsizlik va mikroiklim sharoitlarini yaxshilash, aholining ekologik madaniyatini oshirish, suv tejankor texnologiyalar orqali yashil hududlarni samarali boshqarish.

Yashil hududlarni kengaytirish, mavjud bog‘ va hiyobonlarni rekonstruksiya qilish, har bir mahallada mini-bog‘lar (0.1–0.3 gektar), ijtimoiy obyektlar (maktab, shifoxona) atrofida yashil zonalar.

“Yashil yo‘laklar” yaratish bog‘ va hiyobonlarni piyoda va veloyo‘laklar bilan bog‘lash, avtomobilsiz yashil zonalarini tashkil qilish, amudaryo bo‘yida “ekoyurish” marshrutlari.

2. “Mahalla bog‘i” loyihasi-bu Termiz shahridagi har bir mahallada kichik, ammo funktsional yashil makonlar tashkil etish orqali aholining ekologik hayot tarzini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tashabbusdir. Bu loyiha aholining dam olishi, bolalar va keksa avlod uchun qulay maskan yaratish, ekologik madaniyatni oshirish hamda har bir hududda ijtimoiy faollikni rag‘batlantirishni maqsad qiladi.

Loyiha maqsadlari bu har bir mahallada 0.1–0.3 gektarli yashil makon tashkil qilish, aholining dam olishi, sport bilan shug‘ullanishi uchun qulay joy yaratish, mahalliy daraxt va o‘simliklarni ko‘paytirish orqali ekologiyani yaxshilash, “o‘z bog‘im” tamoyilini shakllantirish, yashil hududlar parvarishiga jamoatchilikni jalb qilish.

3. “Ekoturizm bog‘i”—bu Termiz shahrining Amudaryo bo‘yidagi hududida ekologik turizm, madaniy dam olish, tabiatni asrash va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qiluvchi ko‘p funksiyali yashil kompleksdir. Loyiha mahalliy aholi va sayyohlar uchun ochiq, ekologik jihatdan toza va interaktiv bo‘lishi ko‘zda tutilgan.

Loyiha maqsadlari- amudaryo bo‘yida ekologik dam olish hududi tashkil qilish, ekoturizmni rivojlantirish orqali iqtisodiy va ijtimoiy faollikni oshirish, termizning tabiiy boyliklarini targ‘ib qilish va asrash, tabiat va turizmni uyg‘unlashtirgan barqaror model yaratish.

Xulosa. **“Ekoturizm bog‘i” – Amudaryo bo‘yida** loyihasi Termiz shahrini ekologik jihatdan toza, turistik jozibador va sog‘lom yashash muhiti bilan ajralib turuvchi shaharga aylantirish sari muhim qadamdir. Ushbu loyiha orqali nafaqat tabiat muhofaza qilinadi, balki shahar aholisi va sayyohlar uchun sifatli, ekologik, madaniy dam olish maskani yaratiladi. Ekoturizm – bu barqaror rivojlanishning yangi yo‘nalishi bo‘lib, Termiz uchun katta salohiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22- yanvardagi PF-60-sonli “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026- yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni.-T., 2022.

2. Ro‘ziboboev A.A. Termiz shaharsozligining zamonaviy kadrlarni tayyor-lashdagi ahamiyati //Me’morchilik va qurilish muammolari.-Samarqand, 2024. B.1185-1187.



Date: 23rd November-2025



- 3 Ro'ziboboev A.A. Termiz tarixiy shaharlari mahallalarining tarixiy shakllanishi va rivojlanishi //Me'morchilik va qurilish muammolari.-Samarqand, 2025. B.465-467.
- 4.Ro'ziboboev A.A. Termiz shahri turar-joylari va jamoat binolari arxitek-turasining shakllanishidagi zamonaviy tamoyillarni o'rganish //Me'morchilik va qurilish muammolari.-Samarqand, 2025.- b.132-134.
- 5.Ro'ziboboev A.A. Termiz shahridagi arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash va qayta tiklash usullarini takomillashtirish //Me'morchilik va qurilish muammolari.-Samarqand, 2025.- b.18-20.
- 6.Ro'ziboboev A.A. Termiz shahridagi tarixiy-arxitektura yodgorliklarini, raqamlashtirish orqali turizm sohasini yangi bosqichga ko'tarish yo'llari //Me'morchilik va qurilish muammolari.-Samarqand, 2025.- b.26-28.
- 7.Ro'ziboboev A.A. Termiz shahri arxitekturasining istiqboldagi taraqqiyoti, turar joy va jamoat binolari arxitekturasini bo'yicha loyiha takliflar // Xorazm Ma'mun akademiyasi.- Xiva, 2025.- b.90-93.
- 8.Ro'ziboboev A.A. Termiz shahrining mustaqillik yillari arxitekturasini // Xorazm Ma'mun akademiyasi.-Xiva, 2025.- b.93-95.
- 9.Bozorqulov, S., Ro'ziboboev, A., & Nazarov, B. (2024). SHAHARSOZLIKDA SHOVQINDAN HIMOYA QILISHNING CHORA-TADBIRLARI ARHITEKTURAVIY TARXIY USLUBLAR. Talqin va tadqiqotlar.
- 10.Yusufovich, J. N. (2025). XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA O'ZBEKISTON ARHITEKTURASI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 64(5), 235-243.
- 11.Nurullo o'g'li, A. S. (2025). SHAHARSOZLIKDA "SMART CITY" KONSEPSIYASI ELEMENTLARINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 64(5), 244-254.
- 12.Xolmurzayevich, A. S. (2025). O'SIMLIKLAR BILAN QO'LLANILADIGAN MO'JAZ ARHITEKTURA FORMALARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 64(5), 230-234.